

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA SON KATEGORIYASINING MORFOLOGIK IFODALARI

*Hazratkulova G.M.,
Turon universiteti Sharq
tillari kafedrası o'qituvchisi
hazratkulova.guzal.91@mail.ru*

Annotatsiya: O'zbekiston Koreya munosabatlari tobora rivojlanayotgan hozirgi davrda, koreys tilini o'rganish va tadqiq qilish davr talabiga aylanmoqda. Mazkur maqolada o'zbek va koreys tillarida son kategoriyasi, uning ifodalanishi va morfologik ifoda usuli haqida yoritilgan. Shuningdek, maqolada ushbu mavzu yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy tushuncha va ilmiy xulosalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Son kategoriyasi, ifoda usullari, morfologik usul, birlik shakl, ko'plik shakl.

Abstract: In the present era, when Uzbekistan-Korea relations are developing, learning and researching the Korean language is becoming a demand of the times. This article describes the category of number in Uzbek and Korean languages, its expression and the method of morphological expression. Also, the scientific understanding and scientific conclusions formed by the author on this topic are expressed in the article.

Key words: Number category, methods of expression, morphological method, singular form, plural form.

Kirish (Introduction). O'zbek tilida ko'plik ma'nosining ifodalanishiga doir tadqiqotlarda ot kategoriya talqini keng o'rin egallaydi. Xususan ko'plikning *-lar* morfologik ko'rsatkichi orqali ifodalanishiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari asosiy qismni tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida ham son kategoriyasi tahliliga doir tadqiqotlarning aksariyati ko'plikni ifodalash turlariga bag'ishlangan. "O'zbek tiliga nisbatan "faqat birlikda ishlatiluvchi otlar", "faqat ko'plikda ishlatiluvchi otlar" haqida emas, balki *-lar* affiksini oluvchi va *-lar* olmaydigan otlar haqida, bularning o'z ichki ma'no guruhlanishi haqida gapirish ma'qul. *-lar* olmaslik turlicha sabablarga ko'ra sodir bo'ladi" [3; 54].

Adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbek va koreys tillarida son kategoriyasining morfologik ifodalari haqida bir necha ilmiy adabiotlarda to'xtalib o'tilgan bo'lib, xususan, A.Abduazizov, A.Sodiqov, N.Bashakovlarning "Umumiy tilshunoslik", Sh.Rahmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", U.Tursunov, J.Muxtorov "Hozirgi o'zbek adabiy tili", E.Qilichev "Hozirgi o'zbek adabiy tili", N.Turniyozov, A.Rahimov "O'zbek tili" (ma'ruzalar

matni), 강범모. (2014). “양화와 복수의 의미론”, 박철우 “‘들’-표지 명사구의 구조와 의미”, 이남순 “단수와 복수”, 국어학, 임흥빈 “복수 표지‘들’과 사건성”, 전영철, “한국어 복수 표현의 의미론: ‘들’의 통합적 해석”,

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolda analiz, sintez, tizimli tahlil, komponent tahlil, qiyosiy, tavsifiy, tasnifiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Koreys va o‘zbek tillarida ham birlikni ko‘rsatuvchi maxsus qo‘shimcha yo‘q. Ko‘plik qo‘shimchasining ishtirok etmasligi otning birlikda ekanligini ko‘rsatadi (o‘qituvchi - 선생님). Biroq ba‘zi so‘zlar birlik shaklida bo‘lsa ham, predmetning to‘dasini bildiradi. Masalan:

Avtomobil Andijonda ishlab chiqariladi.

Bu ko‘plikning semantik usul bilan ifodalanishi, deb ham aytiladi.

O‘zbek tilida son kategoriyasi morfologik usulda *-lar* affiksi yordamida hosil qilinib shaxs yoki predmetning ko‘pligini ifodalaydi. *Bolalar, kitoblar* kabi.

O‘zbek tilida *-lar* affiksi quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

1. Shaxs yoki predmetning ko‘pligini ifodalaydi: *daraxtlar, uylar, talabalar.*
2. Egalik affiksidan keyin qo‘shilib, hurmat ma‘nosini ifodalaydi: *dadamlar, oyimlar, xolamlar, akamlar.*
3. Payt bildiruvchi ravishlarga payt, o‘rin yoki narsa sonini bildiruvchi birikmalarga qo‘shilib, chama, taxmin ma‘nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi: *soat 11larda, kechqurunlari suhbatlashamiz, kechalari sayr qilamiz.*

4. *-lar* affiksi uyushiq bo‘laklarning har biriga qo‘shilganda ko‘plik, takid, hurmat ma‘nolarini ifodalaydi:

1) *Bahor, maktab bog‘idagi o‘riklar, olmalar, gilolar chaman kabi ochilgan.*

2) *Haydar, Qo‘chqor, Komillar bir ko‘rpada tepkilashib katta bo‘lishgan.* [4; 75]

Taniqli tilshunos A.G‘ulomov “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” nomli kitobida *-lar* shaklining polisemantik ma‘nolarini ko‘rsatib bergan. Olim o‘zbek tilidagi ko‘plikning uch xil: morfologik, leksik, sintaktik ifodalanishini belgilab, bularninig uchinchisi qadimiy ekanligini ta‘kidlaydi. Olim *-lar* affiksining 13 ta ma‘nosini ko‘rsatib o‘tadi, ya‘ni:

- predmet sonining ortiqligi: *daraxtlar, yigitlar;*
- tur ma‘nosi: *suvlar, unlar;*
- shaxsga hurmat: *dadamlar, onamlar;*
- kulgi, masxara: *Senlar yana kelibsarlarda?*
- ma‘noni kuchaytirish: *yuraklarim, orzularim;*

- umumlashtirish: *Botir, Aziz, Otabeklar birga kelishdi;*
- ish-harakatni uzoq davom ettirish: *qadam tashlashlar unga tanish edi;*
- taxmin: *o'n-o'n ikki yoshlarda;*
- chegaralash: *nonlar* (nonning qismi yoki nonning turi);
- ko'plikni ta'kidlash: *bizlar, sizlar;*
- qarindoshlik ma'nosi: *Adhamlar* (Adhamning oilasi);
- belgilar ma'nosini tasvirlash: *Tabiatning go'zalliklarini ko'rdim;*
- bir nechta to'dalar: *xalqlar, ellar.* [6; 101]

Koreys tilidagi ko'plik belgilarining grammatik vazifasi va semantik qo'llanilishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, standart koreys lug'atida morfologik usul - 들, - 네, - 희 qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi.

6- jadval

Birlik shakl (단수)	Ko'plik shakl (복수)
사람 odam	사람들 odamlar
집 uy	집들 uylar
나무 daraxt	나무들 daraxtlar
구름 bulut	구름들 bulutlar
나라 davlat	나라들 davlatlar
자동차 avtomobil	자동차들 avtomobillar
가족 oila	가족들 oilalar
친구 do'st	친구들 do'stlar
생각 fikr	생각들 fikrlar

-들 qo'shimchasi ega, ravish, '-아, -게, -지, -고' bog'lovchilari qo'shilgan fe'llarga, gap oxiriga ham qo'shiladi. "Gapning egasi ko'plikda ekanligini ifodalovchi yordamchi" sifatida qaraladi.

여러분(들)! 너무(들) 빨리(들) 가시지(들) 마시고(들) 같이(들) 갑시다(들).

Azizlar! Judalar tez ketmanglar birga ketasizlar. [9; 45]

Yuqoridagi gapda **-lar** qo'shimchasi nafaqat otga balki ravishga fe'lga qo'shimchalarga qo'shilishi mumkin.

-lar qo'shimchasining ot bilan qo'llanilishi eng ko'p uchraydigan holatdir. Biroq bu qo'shimcha otga qo'shilmasada ko'plik ifodalanadigan holatlar mavjud:

손님이 온다. Mehmon keladi

손님들이 온다. Mehmonlar keladi.

Gap birlik yoki ko'plikda ekanligi noaniq, buni suhbat mazmunidan bilib olish mumkin bo'ladi.

-lar qo'shimchasining ravish bilan qo'llanilishi. Ko'plik shakli ravishga qo'shilsada ko'plik ma'nosini emas, ma'no kuchaytirish vazifasini bajaradi:

(1) 가. 많이들 먹었습니까? Ko'p yedingizmi?

나. 빨리들 오세요. Tez keling.

다. 왜들 이려고 있습니까? Nimaga bunday bo'lyapti? [10; 62]

-lar ning bog'lovchi fe'l qo'shimchalar bilan qo'llanilishi. Koreys tilida ko'plik qo'shimchasi '-게', '-고', '-(으)며', '-(으)면', '-(으)니', '-아/어', '-지' kabi qo'shimchalardan keyin ham qo'shilishi mumkin. Bu qo'shimchalar qo'shilgan gapda ish-harakat bajaruvchisi ko'plikda ekanligi ifodalanadi.

가. 밥은 먹고들 다니니? Ovqatlanib ketasizlarmi?

나. 그 소식을 듣고 좋아들 하세요. U xabarni eshiting va yaxshi ko'ring.

다. 그 가방을 가지고들 다니더라. U sumkani olib yurishadi.

-lar ning bog'lovchi qo'shimchalari bilan qo'llanilishi. Bunday holatlarda ham gapda ko'plik qo'shimchasi qo'shilsada, gapni birlik yoki ko'plikda ekanligini matndan anglaniladi.

가. 수업이 끝나자 집으로들 갔다. Dars tugashi bilanoq uylariga ketishdi.

나. 집에서들 연습을 했다. Uylarida mashq qilishdi.

다. 여기서부터들 시작하세요. Shu yerlardan boshlang.

-lar ning gap bilan qo'llanilishi. Fikr yoki his tuyg'ularni og'zaki yoki yozma ravishda ifodalab, tugallangan mazmunni ifodalovchi eng kichik birlik gap deyiladi.

Koreys tilida gap oxirida ham – 들 ko'plik shakli qo'shiladi. Masalan:

가. 숙제해 왔어요들? Uyga vazifani (hammangiz) bajarib keldingizmi?

나. 지금 공부를 할까들? Hozir (hammangiz) o'qiyapsizmi?

-네 suffiksi asosan shaxs otlariga qo‘shilib ko‘plik ma‘nosini hosil qiladi. Bu qo‘shimcha rasmiy uslubga xos bo‘lib, og‘zaki nutqda bu qo‘shimcha o‘rnida - 들 ishlatiladi. Masalan:

여자네(들)는 수다를 떨다. (Barcha) Ayollar g‘iybat qiladilar.

우리는 순옥네(들)를 찾아갔었다. Biz Sunoklarni (uyini) topib bordik.

우리네(들)가 독재자의 억압에 항거하여 쫓겨났다. Biz (barchamiz) diktator zulmiga qarshi isyon qildik.

들 va -네 suffikslari so‘z marfemasining bir qismi sifatida istagan ketma - ketlikda kelishi mumkin. Masalan, 우리네들 va 우리들네 “biz [hammamiz birga]”. Yuqoridagi misolda birinchi hapda -들 so‘z oxirida, ikkinchi misolda

네 dan oldin qo‘yiladi.

Xulosa. Har qanday chet tilini o‘rganishda, shaxsning o‘z ona tili asos qilib olinadi va shu jihatdan ikkala til o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqli jihatlar o‘rganib chiqiladi. Ushbu maqolada ham o‘zbek va koreys tillaridagi grammatik son kategoriyasining ifodalari mavzusini ikki til misolida chuqurroq o‘rganishdir. O‘rganishimiz natijasida grammatik son tushunchasi hamda uning paradigmatic va kategorial belgilari nomli birinchi bobdan har ikkala tilda ham son tushunchasi “miqdor”, “qiymat” ma‘nolarini ifodalashi, tilshunoslikda ushbu ma‘nolarning grammatik talqini:

- son so‘z turkumi;
- otlardagi grammatik son kategoriyalari;
- fe‘llardagi shaxs-son kategoriyalari vositasida tavsiflanishi ma‘lum bo‘ladi.

Shuningdek, grammatik son tushunchasining paradigmatic belgilari va grammatik son tushunchasining kategorial ko‘rsatgichlari haqida umumiy tushuncha berildi.

Ikkala tilda ham ot turkumiga xos grammatik son kategoriyasiga doir ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. Koreys va o‘zbek tillaridagi ot so‘z turkumidagi son kategoriyasi ilk bor chog‘ishtirma – tipologik metod nuqtai nazardan o‘rganildi. Maqolada koreys va o‘zbek tillariga oid aniq masalalar tahlil qilindi, uning o‘ziga xos jihatlari atroflicha yoritildi va quyidagi to‘xtamlarga kelindi:

1. Mavzuga doir ko‘plab ilmiy nazariy adabiyotlarni ko‘rib chiqish natijasida koreys va o‘zbek tillariga xos xususiy va umumiy jihatlari borligi aniqlandi.

2. Ikkala tilda ham otga xos son grammatik kategoriyasi ikki subkategoriya - birlik va ko'plikdan tashkil topadi. Tadqiqot jarayonida ikki tilga xos son grammatik kategoriyasi nuqtai nazaridan quyidagi tiplar aniqlandi:

a) Tillarni yaqinlashtiruvchi til faktlari – birlikdagi otlar bir xil turdagi narsa – predmetlarning bittasini bildiradi. Bu tipga ko'ra ikkala tilda ham birlik shakl hosil qiluvchi morfema 0 ga teng.

b) Tillarni nisbatan yaqinlashtiruvchi lisoniy faktlar – tanlangan ikki tilda ham otlarning ko'plik shakli asosan morfologik va leksik usulda yasaladi. Leksik usul, ya'ni songa oid so'zlar bilan otlarning ko'plik shakli hosil qilinganda, bir qarashda shakliy o'xshashlik xususiyati ko'zga tashlansada, aslida ma'noviy farqlar kuzatiladi.

c) Har ikkala tilda ham ko'plik shakl morfologik usulda affikslar orqali hosil qilinadi. O'zbek tilida birgina **-lar** affiksi ko'plik hosil qilsa, koreys tilida uchta affiks -들, -히, -네 orqali ko'plik hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent 2016
2. Mirziyoyev Sh.M. Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Prezident nutqi. 2021 yil. 6-may.
3. Abduazizov A., Sodiqov A., Bashakov N. Umumiy tilshunoslik N., 1979.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 1978.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., 1978
6. Tursunov U. Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 1975
7. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – B., 1999
8. Turniyozov N., Rahimov A. O'zbek tili (ma'ruzalar matni) Samarqand-2006:87
9. 강범모. (2014). "양화와 복수의 의미론", 서울: 한국문화사.
10. 박철우. (2010). "'들'-표지 명사구의 구조와 의미", 한국어 의미학 31, 51-75.
11. 이남순. (1982). "단수와 복수", 국어학 11, 117-141.
12. 임홍빈. (2000). "복수 표지 '들'과 사건성", 애산학보 24, 3-50.
13. 전영철. (2007). "한국어 복수 표현의 의미론: '들'의 통합적 해석", 언어학 49, 339-361.